



GBPS

LIFE AND CREATIVITY OF ZULFIYAKHONIM

A.N.ASKAROVA, D.I.KHURRAMOVA

PUBLISHED DATE :- 30 JAN 2025



2025

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED
EDUCATION MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF
UZBEKISTAN.**

TASHKENT MEDICAL ACADEMY

LIFE AND CREATIVITY OF ZULFIYAKHONIM

A.N.ASKAROVA, D.I.KHURRAMOVA



TASHKENT - 2025

DOI:- <https://doi.org/10.37547/gbps-43>

ISBN:- 978-1-957653-52-5

ANNOTATSIYA

Ushbu uslubiy qo'llanma baxtiyor o'zbek ayolining yorqin timsoli bo'lgan Zulfiyaxonimning murakkab ammo qizg'in hayoti va ijodiy yo'li haqida bo'lib, iqtidorli shoir va yozuvchi, inson qalb tug'yonlarini o'tkir bilimdonining she'rlaridan namunalar keltirilgan. Zulfiyani nomini barchamiz doimo lutf va ehtirom bilan tilga olamiz. O'z ijodida toza muhabbatni, vafo va sadoqatni, tinchlik va ozodlikni tarannum etgan shoiraning har bir she'ri teran fikrlar, yorqin hissiyotlaru hayotiy mushohadalar bilan mukammallik kasb etganini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu ko'rsatma qo'llanma talabalar va adabiyot ixlosmandlari uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchi mualliflar: psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent. N.A. Askarova, D.I.Xurramova

Taqrizchilar: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Umumiy psixologiya" kafedrasi dotsenti D.Z.Jurakulova.

TTA, Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, Yu.K.Narmetova

KIRISH

Zulfiya Isroilova - har qanday o'zbek qiziga yorqin namunadir. She'riyat ixlosmandlari, adabiyotga qiziquvchi ko'pgina qizlar Zulfiyaning hayotiga juda qiziqish bildirishadi. Sababi u haqiqiy sharq ayoli, sodiq rafiqa va betakror she'rlar muallifidir.

“Baxtim shulki, o‘zbekning Zulfiyasiman” degan edi xalqimizning atoqli shoirasi Zulfiyaxonim. Baxtiyor o‘zbek ayolining yorqin timsoli bo‘lgan ushbu shoira nomini barchamiz doimo lutf va ehtirom bilan tilga olamiz. O‘z ijodida toza muhabbatni, vafo va sadoqatni, tinchlik va ozodlikni tarannum etgan shoiraning har bir she’ri teran fikrlar, yorqin hissiyotlaru hayotiy mushohadalar bilan mukammallik kasb etganini ko‘rishimiz mumkin.

O‘ziga xos ovozi, uslubi, hayotdagi voqeliklarga haqqoniy baho bera olishi, samimiylik va badiiy jozibadorlik uning she’rlariga barhayotlik baxsh etgan desak, yanglishmaymiz. Zulfiya shoir Hamid Olimjon bilan turmush qurib, mazmunli umr kechirdi. Qisqa vaqt bo‘lsa-da, ikki shoir qushning qo‘sh qanotlaridek bahamjihatlikda yashab, ijod qilishdi. Ammo Hamid Olimjon hayotdan erta ko‘z yumdi. Zulfiya shunday og‘ir paytlarda ham ijod qilishdan to‘xtamadi. Shu bilan birga onalik burchini ham sharaf bilan ado etib, ham ota, ham ona bo‘lib, ikki farzandi Hulkar va Omonni tarbiyalab voyaga yetkazdi. Ular ham ulg‘ayib, ziyoli, el xizmatiga kamarbasta insonlar bo‘lib yetishdi.

Bir umr o‘z yoriga sadoqat bilan yashagan shoira “Hijron kunlarida”, “O‘rik gullaganda”, “Ko‘rganmiding ko‘zlarimda yosh?”, “Sensiz”, “Izlayman” kabi she’rlarida Hamid Olimjonga bo‘lgan cheksiz mehru sadoqatini, sof sevgisini ifoda etgan.

Iste’dod Olloh tomonidan insonga berilgan ne’matdir. Shunday ulug‘ iste’dod sohibi bo‘lgan shoira o‘z eliga sidqidildan xizmat qilish barobarida salmoqli asarlari bilan o‘zbek adabiyotida yorqin iz qoldirdi. Shuni ham ta’kidlash lozimki, Zulfiya tarjimon sifatida ham o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ijodkor sanaladi.

Chunonchi, u A. Axmatova, M. Dilbozi, M. Aliger, Q. Quliev, L. Ukrainka, M. Svetaeva, N. Nekrasov kabi qator ijodkorlarning asarlarini o'zbek tiliga o'girdi.

Sharq ayollariga xos tengsiz nazokatu latofatni, aql-zakovatni o'zida mujassam etgan Zulfiyaxonim XX asrning buyuk ayollari qatoridan o'rin oldi. O'zbekiston xalq shoirasi, Neru nomidagi va "Nilufar" xalqaro mukofotlarining sovrindori sifatida u nafaqat O'zbekistonda, balki butun jahonda dovrug' qozondi.

Mustaqillik yillarida shoira ijodini o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. 1999 yilda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidentining farmoni bilan Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etildi. Shundan buyon har yili respublikamiz shahar va viloyatlaridagi maktab, litsey hamda kollejlarning har jihatdan iqtidorli, ijodkor qizlari ushbu mukofot bilan taqdirlanib kelishadi. 2008 yilda Toshkent shahrida ijodkorning haykali o'rnatilishi esa adabiyot ixlosmandlari uchun yana bir bayram bo'ldi, deyish mumkin.

I. ZULFIYA ISROILOVANING HAYOTI VA IJODI

Zulfiya Isroilova O‘zbek xalqining sevimli shoirasi, taniqli jamoat arbobi, O‘zbekiston xalq shoiri Zulfiya Isroilova 1915 yil 1 martda Toshkentning O‘qchi mahallasida degrez oilasida tug‘ilgan. U xotin-qizlar bilim yurtida o‘qib yurgan vaqtlaridayoq (1931–1934) adabiy to‘garaklarga qatnashib, she’rlar mashq qiladi.

Zulfiyaning “Men ish qizi” nomli birinchi she’ri 1931 yil 17 iyulda “Ishchi” gazetasida bosilib chiqdi. “Hayot varaqlari” nomli ilk to‘plami o‘n yetti yoshida nashr etildi (1932).

1935–1938 yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti aspiranturasida tahsil oldi.

1938–1948 yillarda nashriyotlarda muharrir, bo‘lim boshlig‘i, 1950–1953 yillarda esa “O‘zbekiston xotin-qizlari” (hozirgi “Saodat”) jurnalida bo‘lim boshlig‘i, 1953–1985 yillarda esa bosh muharrir bo‘lib ishladi. Zulfiya badiiy-estetik puxta she’r-dostonlari bilan Oydin, Muzayyana Alaviya, Xosiyat Tillaxonovalar safiga kirib keldi.

Zulfiyaning ijodiy kamolotida o‘zbek va rus klassiklari, xalq og‘zaki ijodiyoti va jahon adabiyoti an‘analarining roli beqiyos bo‘ldi.

Shoira “Temiroy” (1934), “She’rlar” (1939), “Qizlar qo‘shig‘i” (1939) kabi poetik asarlarini ona Vatan va uning dala, cho‘llarida mehnat qilayotgan paxtakorlar, traktorchi qizlarning qaynoq hayotlariga bag‘ishlaydi. Ayni chog‘da, mazkur to‘plamlardagi she’rlari shoiraning mahorat sirlarini egallayotgan davrini xarakterlovchi asarlar sifatida ham muhim edi.

Urush vaqtida “Uni Farhod derdilar” (1943), “Hijron kunlarida” (1944) kabi to‘plamlarining nashr etilishi Zulfiyaning peshqadam shoirlar qatoriga dadil kirib kelayotganligidan dalolat berdi. Bu to‘plamdagi she’rlar Vatanga muhabbat, dushmanga nafrat va g‘alabaga ishonch, yorga sadoqat ruhida yaratilgani bilan xarakterlidir.

Zulfiyaning “Mening Vatanim”, “Qo‘limda qurolu ustimda shinel”, “Bizni kut” kabi umidbaxsh she‘rlari urush davri o‘zbek she‘riyatining jangovor ruhini ifodalovchi asarlar qatoridan o‘rin olgan.

Shoiraning urushdan keyingi yillarda yaratilgan “Dalada bir kun” (1948), “Tong qo‘shig‘i” (1953) kabi she‘rlar turkumi, shuningdek, “Hulkar” (1947), “Men tongni kuylayman” (1950), “Dugonalar bilan suhbat” (1953), “Yuragimga yaqin kishilar” (1958), “Gullarim” (1959), “Tanlangan asarlar” (1959), “Hayot jilosi” (1961), “Kuylarim sizga” (1963), “She‘rlar” (1963), “Kuylarim sizga” (to‘ldirilgan 2-nashri, 1965), “O‘ylar” (lirika, 2-nashri, 1969), “Lolaqizg‘aldoq” (1970), “Quyoshli qalam” (1971), “Visol” (1972), “Asarlar” (2 tomlik, 1-jild, 1974, 2-jild, 1975), “Yillar, yo‘llar...” (1975) kabi to‘plamlarida Vatan madhi, mehnat jarayonida fidokorlik ko‘rsatayotgan kishilar hayoti jo‘shib kuylanadi.

Uning “So‘roqlaydi shoirni she‘rim” (1960), “Oydin” (1953), “Quyoshli qalam” (1967) kabi ocherk va dostonlari Hamza, Oybek, Oydin, Hamid Olimjon kabi ustozlarning yorqin xotiralariga bag‘ishlangan.

Zulfiya Hamid Olimjonning “Semurg‘”, “Zaynab va Omon” dostonlari asosida pyesa va opera liberettosini ham yaratgan.

Zulfiya “O‘ylar”, “Shalola” kabi she‘riy to‘plamlari uchun Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan (1970).

U o‘ttizdan ziyod she‘riy va nasriy kitoblar muallifi. Badiiy ijod sohasidagi xizmatlari uchun Davlat mukofoti, 1968 yil Javoharlar Neru nomidagi xalqaro mukofot bilan taqdirlandi. Tinchlik va do‘stlikni tarannum etuvchi asarlari hamda taraqqiyparvar Osiyo va Afrika yozuvchilari harakatidagi faol ishtiroki uchun esa xalqaro “Nilufar” mukofotiga sazovor bo‘ldi (1970).

Shoira Hindiston, Yugoslaviya, Shri Lanka, Misr, Birma, Avstriya kabi mamlakatlarda bo‘ldi. U 1956 yilda Osiyo va Afrika yozuvchilarining Dehlida o‘tkazilgan birinchi konferensiyasida qatnashib, mashhur “Mushoira” (1958) asarini yaratdi.

Zulfiyaning o'n beshga yaqin majmualari rus tilida chop etilgan. Uning asarlari ingliz, nemis, hind, bolgar, xitoy, koreys, arab, fors, tojik, arman, qirg'iz, tatar, turkman, boshqird, ozarbayjon va boshqa tillarga tarjima qilingan. Shoirani N. Nekrasov, M. Lermontov, Vera Inber, Lesya Ukrainka, Edi Ognetsvet, Marvarid Dilboziy, Amrita Pritam asarlarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.

Mustaqillik yillarida ibratli hayot kechirgan, keng ijtimoiy faoliyat olib borgan shoirani Zulfiya betakror iste'dodi, Vatanga muhabbati, olijanob insoniy fazilatlari, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishdagi xizmatlari uchun yuksak hurmat va e'zozga sazovor bo'ldi. O'zbekiston hukumati atoqli shoiraning madaniyatimiz taraqqiyotidagi katta xizmatlarini e'tiborga olib 1999 yili Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etdi.

Ardoqli shoirani tavalludining 100 yilligi esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 31 oktyabrdagi qarori bilan (2015) keng ko'lamda nishonlandi, chinakam adabiyot bayramiga aylanib ketdi.

II. ZULFIYAXONIM HAYOTIDAGI MUHIM SANALAR

1915-yil 1-mart. Toshkentning Degrez mahallasida hunarmand oilasida tug'iladi.

1931–34-yillar. Xotin-qizlar bilim yurtida o'qiydi. Adabiy to'garaklarda qatnashadi va she'rlar mashq qiladi.

1931-yil 17-iyul. Birinchi she'ri «Ishchi» gazetasida bosiladi.

1932-yil. Hamid Olimjon bilan uchrashadi.

1932-yil. «Hayot varaqalari» nomli birinchi she'rlar to'plami chop etiladi. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutida o'qiydi.

1933–35-yillar. O'zbekiston Davlat nashriyotida ishlaydi.

1935–38-yillar. O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi til-adabiyot instituti aspiranturasida o'qiydi.

1938-yil. Bolalar nashriyotida muharrir.

1939-yil. «Qizlar qo'shig'i» she'riy kitobi chiqadi.

1941-yil. O'zbekiston Davlat nashriyotida adabiyot bo'limi boshlig'i.

1943-yil. «Hulkar» kitobi, «Uni Farhod der edilar» poemasi nashr etildi.

1944-yil. «Hijron kunlarida» kitobi chiqadi.

1944-yil. Hamid Olimjon vafotiga atab «Kechir, qoldim g'aflatda», «Yulduz», «Ne balolarga etding muhtalo», «Sen qaydasan, yuragim», «Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh», «Bahor keldi seni so'roqlab» she'rlarini yozadi.

1950–53-yillar. «O'zbekiston xotin-qizlari» jurnali bo'limi boshlig'i.

1950-yil. «Men tongni kuylayman» she'riy kitobi chiqadi.

1953-yil. «Dugonalar bilan suhbat» kitobi nashr etiladi. «Oydin» ocherki bosildi.

1954-yil. «Saodat» jurnalining bosh muharriri.

1958-yil. «Yuraginga yaqin kishilar» kitobi chiqadi. «Mushoira» she'ri, «Zaynab va Omon» operasi librettosi yozildi.

1965-yil. O'zbekiston xalq shoiri unvoni beriladi. «Kuylarim sizga» she'rlar to'plami, «O'ylar» adabiy maqolalari kitobi chop etiladi.

1967-yil. Neru xalqaro mukofoti laureati bo'ldi. «Quyoshli qalam» poemasini yozdi.

1970-yil. Nilufar nomli xalqaro mukofot laureati bo'ldi.

1972-yil. «Visol» she'rlar to'plami nashr etildi.

1972-yil. Bolgariya Xalq Respublikasining I-darajali Kirill va Mefodiy ordenini oldi.

1974-yil. 2 jildlik «Asarlar» to'plami chiqdi.

1975-yil. «Yillar, yillar» she'rlar kitobi chop etildi.

1976-yil. «Kamalak» she'rlar kitobi uchun Davlat mukofoti berildi. «Shalola» she'rlar kitobi chiqdi.

1984-yil. Mehnat Qahramoni unvoni berildi. Respublika Davlat mukofoti laureati bo'ldi, Hamid Olimjonning «Semurg'» dostoni asosida pyesa-ertak yozdi.

1996-yil. 81 yoshida vafot etdi.

III. ZULFIYAXONIM SHE'RLARIDAGI GO'ZALLIK

KIMNI KUTASAN

Ko'zing muncha yo'lda intizor,
Ey, bahordan barkamol husn.
Iztirobing dilimga ozor -
Ishq hijronin bilganim uchun.

Sen kutasan kimni, qayerdan,
Kelaman deb, qildimi va'da?
Sen kutasan, gulning bargidan
Nozik diling mustahkam ahdda.

Ishqli qalbning qoniday labing,
Lovillaydi ma'sum otashda.
Uchqun sochar ohu ko'zlaring
Yashirmoqchi bolganing g'ashda.

Ey, qalbiga riyo begona,
Tabiatning bokira qizi.
Go'zal otashda yona-yona,
Ayt, kutganing nonko'r kim o'zi?

So'ramayman, uzr ey malak,
Beburd nomni olma sen tilga...
Bahor kolrin bezab kamalak,
Birdan shunday sovrilar yerga.

Dilga orom yorqin yulduzing

Qayerdadir chaqnab turibdi,
Sevgi, vafo axtarib izing
Chin baxt o‘zi sen deb yuribdi.

BAHOR KELDI SENI SO‘ROQLAB

Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor.

Qancha sevar eding, bag‘rim, bahorni,
O‘rik gullarining eding maftuni.
Har uyg‘ongan kurtak, hayot bergan kabi
Ko‘zlaringga surtib o‘parding uni.

Mana qimmatligim, yana bahor kelib,
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.
Qishning yoqasidan tutib so‘radi seni,
Ul ham yosh to‘kdi-yu, chekildi nari.

Seni izlar ekan, bo‘lib shabboda,
Sen yurgan bog‘larni qidirib chiqdi.
Yozib ko‘rsatay deb husn-ko‘rkini,
Yashil qirg‘oqlarni qidirib chiqdi.

Topmay sabri tugab bo‘ron bo‘ldi-yu,
Jarliklarga olib ketdi boshini.
Farhod tog‘laridan daraging izlab,
Soylarga qulatdi tog‘ning toshini.

So'ngra jilo bo'lib kirdi yotog'imga,
Hulkar va Omonning o'pdi yuzidan.
Singib yosh kuydirgan zafar yonog'imga
Sekin xabar berdi menga o'zidan.

Lekin yotog'imda seni topolmay,
Bir nuqtada qoldi uzoq tikilib.
Yana yel bo'ldi-yu, kezib sarsari,
Mendan so'ray ketdi qalbimni tilib:

«Qani men kelganda kulib qarshilab,
Qo'shig'i mavjlanib bir daryo oqqan?
«Baxtim bormi deya», yakkash so'roqlab
Meni she'rga o'rab suqlanib boqqan?

O'rik gullariga to'nmaydi nega
Yelda hilpiratib jingala sochin?
Nega men keltirgan sho'x na'shidaga
Peshvoz chiqmaydi u yozib qulochin?

Qani o'sha kuychi, xayolchan yigit?
Nechun ko'zingda yosh, turib qolding lol.
Nechun qora libos, sochlaringda oq,
Nechun bu ko'klamda sen parishonhol?

Qanday javob aytay, loldir tillarim,
Baridan tutdim-u, ketdim qoshingga.
U ham gaming bilan kezdi aftoda,
Boqib turolmayin qabring toshiga.

Alamdan tutoqib daraxtga ko'chdi,
Kurtakni uyg'otib so'yladi g'amnok.
Sening yoding bilan yelib beqaror,
Gullar g'unchasini etdi chok-chok.

Gul-u rayhonlarning taraldi atri,
Samoni qopladi mayin bir qo'shiq.
Bu qo'shiq naqadar oshno, yaqin,
Naqadar hayotbaxsh, otashga to'liq.

Bahorgi burkangan sen sevgan elda,
Ovozing yangradi jo'shqin zabardast.
O'lmagan ekansan, jonim, sen hayot,
Men ham hali sensiz olmadim nafas.

Hijroning qalbimda, sozing qo'limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam,
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!

XALQIMGA AYTAR SO‘ZLARIM

O ‘zing tashna etding, o ‘zing suv tutding,
Qalbimdagi sahrom, daryomsan, xalqim!
Seni seva-seva men boyib ketdim,
Dunyo ichra topgan dunyom san, xalqim!

Yurak chaqm oq tekkan osm on yuziday,
Lekin e’tiqodim, iymonim butun.
Umrimda qilganim ozm i-ko‘pimdan,

Mehrim daryosidan serobman bu kun.

Menga Navoiydan ayting alla deb,
Lutfiydan ongimga ziyo taratding.
Qiynalgan olamga bo'lg'in dalda deb
Asli o 'zing meni shoir yaratding...

Yosh shuur, kurashchan tuygularr bilan
Sening taqdiringga mahkam tutashdim,
Ne-ne g'animlar-la kurashganing on
Ko'pning biri b o'lib malhamga shoshdim.

Sarg'aygan dashtlarga berding yashil qon,
Tuproq tepalarda shahar k o'tarding:
Har bir g'alabangni ko'rgan suyuk on
Dildagi o 'z g'amim kuyi cho'kardi.

Yo'l yurdim, sog'indim, to'kildi baytim
Xorijning shomlari, saharlarida,
Ezgu istaklaring jaranglab aytdim,
Osiyo, Afrika minbarlarida.

Paxta xirmonining o'sdi boyiari,
Tanidi, tan oldi yaqin-u yiroq.
G'ururdan dengizday tolib kuyladim,
Tolelar tiladim bundan yorqinroq.

Maktublar yozding sen, maktublar bitdim,
Goh ko'zga nam qalqib, gohida xushbaxt.
She'r bilan, so'z bilan qalbingga yetdim,

O'sha qalb men uchun eng sharaflı taxt.

Ko'zim ustıdasan bu tug'yonlı dam,
Sen bilan taqdirdosh kunduzlı bo'ldım.
Seni deb siyladı Umr, aziz Vatan,
E'zozlı boldım men, yulduzlı bo'ldım.

Hali bor oldımda o 'tmagan burchım,
O 'tayman ko'zimda tirik tursa nur.
Umrimdagi barcha fasllar uchun
O'ziga bek xalqım, Senga tashakkur!

O 'RIK GULLAGANDA

«Derazamning oldida bir tup
O 'rik oppoq bolib gulladı...»
Gulni ko'rib ishqparast qalbım,
Ming aytilgan darıdan kuyladı.

Seni qo'm sab oqshom ch og'ida
Hijron qo'shar ekan harorat.
Olgudayin m ushtoq bolibm an -
Visolingga, y o'q chog'i toqat.

Seni qo'msab oqshom chog'ida
Kirib keldım shu tanish uyga.
Biz bir choqlar yashagan uyda
Tunab qoldım xayol-la birga.

Buncha issiq, buncha ham shinam

Yoshlik kechgan torgina shu joy.
Bunda yashar ajib onlardan,
Ishq-la o'tgan tunlardan chiroy.

Har burchagi elitär hushim,
Naqadarlik oshno va yaqin.
Xuddi tunda kamolga yetgan
Qo'shig'ingda chaqnagan chaqin.

Bunda hayot - ilhom onlari
Qalamingdan to'kilgan gavhar.
Gul boyini olganda shamol
Rashkka to'lib to'ngan u ko'zlar.

Sen tugatgach chanqoqlik bilan
O'qib maftun bo'lganim hayot.
«Qalay degan» bo'lib termulgan
Ko'zlaringning otashi hayot.

Hali hayot, takror o'qirkan
Zavqqa to'lib yayragan ko'ksim.
Yuzingdagi ulug'vor, mayin,
Bir jahonga arzir tabassum.

Bari hayot, muhabbat kabi,
Hamma yerda ko'rinar izing.
Parrandalar nag'ma kuyida
Jaranglaydi tovushing, so'zing.

Meni o'rab oldi hayajon,

Yana ortdi sevgining kuchi.
Sharq qizarib, chiqmoqda quyosh,
Oltinlandi terakning uchi.

Sen kuylagan o‘rik shu kecha
Burkandi oq - oppoq chechakka.
Men qadrdon xotira bilan
Jo‘nab ketdim uyimga yakka.

SENSIZ

Mana bir umrni yashadim sensiz,
Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib,
Tobuting boshida cho'kkanimda tiz,
Farzandlar ko‘tardi qolimdan tutib.

Shundan beri tikman. Har nega qalqon,
Baxtga, bahorga ham, qishga, qayg'uga,
Birov azasida yiglayman qon-qon,
To Vida yayrayman o‘xshab ohuga.

Lekin qolganimda qalbim-la tanho,
Tuyg‘ular zoriga solganda quloq,
O'zni zaif, chanqoq sezganda goho,
Alamdan beraman javobsiz so‘roq:

Nega tiriklikda tashlab ketmading?
Mendan nafisroqning husniga oshiq,
Mendan yoniqrog'i tortmadi seni,
Edi nigohingga bor jannat ochiq.

Seni Majnun etib bir yer go‘zali
Nega meni tashlab ketavermading?
Tirik ayrilishning dog‘i og‘irmish,
Xo‘rlik kemirarmish umrni chaynab!

Bu - mudhish egovga berardim turish,
Ketsang ham menga jon tuyg'ungdanaynab.
Bilardim, qaydadir olasan nafas,
Murakkab bu dunyo sen-chun ham tirik.

Senga yot - noshudlik, tund ruhlik, qafas,
Bugungi qadaming kechadan yirik,
Nega, nega meni tashlab ketmading?
Bilaman, rashk meni etardi halok,

Afzal ko'rganingni qarg'ab o‘tardim,
Izingdan yurmasdim soyaday g‘amnok,
Lekin ishq haqqi-la mag'rur kutardim.
Hayotda men uchun qolarding tirik,

Qalaming mujdasin kutardim mushtoq...
Ma'yus taqdiringga yashab men sherik,
Mushkul bolayotir shodlik yaratmoq.
Nega tiriklikda tashlab ketmading,
Tashlab ketmading-a, boshlab ketmading

HAYOT JILOSI

Yana yilday uzun boldi tun,
Ko'zlarimga kelmadi uyqu.

Turli xayol chulg'ab oimni,
O 'tday yoqdi boshimni parquv.
To'shagimda kuchsiz va horg'in

To'nib yotdim xayolga botib,
Devordagi gardish palakka
Shula tushdi kuyunday oqib.
Soyiamadi yupanchli so'zlar,

Odatdagi do'stlar singari.
Ammo yengil tortib nafasim,
Nazarimda g'am ketdi nari.
Uyga kirgan hayotbaxsh jilo,

Tashga boq, deb qilganday xitob.
Ko'tarilib darchadan boqdim,
Og'shiga oldi oftob.
Qaradim-u, ko'zimni ortiq

Uzolmadim tirik hayotdan.
Sozim, qalbim, qo'shig'im bilan
Maftun boldim men qayta, boshdan.
Ana, qushlar qanotida nur,

Nur-la o'ynar bargdagi shabnam.
Shu giyohday, ey aziz oftob,
Intilaman sen tomon men ham.



VI. Zulfiyaxonim mukofoti

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev imzolagan farmonga asosan xotin-qizlarni Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlash tizimi yanada takomillashtirilmoqda.

Endilikda mazkur davlat mukofoti Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri vakillariga ikkitadan har yili Xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida ta'lim, fan adabiyot, madaniyat, san'at, sport va jamoatchilik faoliyatida alohida yutuqlarga erishgan o'n to'rt yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan iqtidorli qizlarga berilishi e'tirof etildi.

Shuningdek, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti laureatlari bo'lgan o'quvchilari oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga, bakalavriat talabalari esa oliy ta'lim muassasalarining magistraturasiga tegishli yo'nalish va ixtisoslik bo'yicha kirish sinovlarisiz davlat grantlari asosida qabul qilinadigan bo'ldi.

Mukofot ilgari har bir hudud vakilasiga bittadan berilar edi. Shu bilanbirga, mukofot adabiyot, madaniyat, san'at, fan, ta'lim sohalaridagi hamda jamoatchilik faoliyatidagi alohida yutuqlari uchun 14 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan iqtidorli qizlarga berilardi.

Zulfiyaxonim mukofotini olish har qanday o'zbek qizi uchun sharaftir. Ushbu mukofot bilan taqdirlangan qizlar jamoat ishlarida faol, zukko, she'riyatga oshno, ilm-u fanda koplalab yutuqlarga erishgan qizlardir. Zulfiyaxonim qizlariga yangi nomzodlar har yili munosib taqdirlanadi. Bu mukofot qizlarga keyingi faoliyatlarida yanada ma'suliyatli bolishga undaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Zulfiyaxonim qizlariga katta imkoniyatlar berganligi ularni yanada ruhlantiradi. Ular oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga, bakalavriat talabalari esa oliy ta'lim muassasalarining magistraturasiga tegishli yo'nalish va ixtisoslik bo'yicha kirish sinovlarisiz davlat grantlari asosida qabul qilinadi.



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 23 iyundagi «Jizzax shahrida Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ona tili va adabiyoti fanini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internatni tashkil etish to‘g‘risida»gi qarori bilan mazkur maktab-internat uchun 4 qavatli zamonaviy bino qurib bitkazildi. Bu yerda yaratilgan zamonaviy sharoitlar, 100 o‘rinli yotoqxona, oshxona, faollar zali o‘quvchilarning munosib ta’lim olishiga xizmat qiladi.



ADABIYOTLAR RO`YHATI

1. Zulfiyaxonim asarlari saylanma-2016.
2. "O'zbek adiblari" (S.Mirvaliyev, R.Shokirova, Toshkent G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti 2016) kitobi
3. Bahor keldi seni so'roqlab: she'rlar/ Zulfiya Isroilova/Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
4. Abdivalyevna, A. N. (2023). ZULFIYAKHANIM IS THE SYMBOL OF A STRONG AND INTELLIGENT UZBEK WOMAN. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 12, 126-129.
5. Abdivaliyevna, A. N. (2024). ZULFIYAKHANIM IS THE EMBODIMENT OF A LUCKY UZBEK WOMAN METHODOLOGICAL GUIDE. Global Book Publishing Services, 1-22.
6. Tursunova Zebunniso Avazbek qizi, & Askarova Nargiza Abdivalyevna. (2023). ZULFIYAKHANIM IS THE SYMBOL OF A STRONG AND INTELLIGENT UZBEK WOMAN. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 12, 126–129.
7. Shavkatova Ismigul Sharif qizi, & Askarova Nargiza Abdivaliyevna. (2023). ZULFIYAXONIM HAYOTI VA IJODIGA BIR NAZAR. E Global Congress, (1), 73–77.
8. Boymurodova Xolisa, & Askarova Nargiza Abdivaliyevna. (2023). ZULFIYAXONIM – BAXT VA XAYOT KUYCHISI. E Global Congress, (1), 68–72.
10. Kun.uz
11. www.ziyouz.com kutubxonasi

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I. Zulfiya isroilovanning hayoti va ijodi.....	5
II. Zulfiyaxonim hayotidagi muhim sanalar.....	8
III. Zulfiyaxonim she`rlaridagi go'zallik.....	10
IV. Zulfiyaxonim mukofoti.....	21

2025

LIFE AND CREATIVITY OF ZULFIYAKHONIM

**A . N . A S K A R O V A ,
D . I . K H U R R A M O V A**

Monograph. Fergana- USA Global Book
Publishing Services (GBPS)
USA 2025, 24 p.

**G
B
P
S**



*Email:- info@scientificpublication.org
Global Book Publishing Services
1211 Polk St, Orlando, FL 32805, USA*